

О'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Zokirova Diyora Iqboljon qizi
Toshkent moliya instituti talabasi
Mavlonov Sunnatbek Xamza o'g'li
Toshkent moliya instituti talabasi
Yuldasheva Umida Asanalievna
Toshkent moliya instituti PhD o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi holati, uning rivojlanish istiqbollari va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir statistik malumotlar tahlili etilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, muammo yuzasida xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar. Tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, tashqi iqtisodiy savdo aylanmasi, xalqaro moliya institutlari, tovarlar, xizmatlar.

Abstract. The article examines our country's current foreign economic activity, development prospects, and integration into the international financial system. Also, statistical data on the topic was analyzed. Existing problems are identified, and conclusions and proposals are given.

Keywords. Foreign economic activity, export, import, foreign economic trade turnover, international financial institutions, goods, services.

KIRISH

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosati eng avvalo, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilgan holda xalqaro moliya munosabatlarida faol ishtirok etishga qaratilgan. Respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan strategiya izchil amalga oshirilgan ekan, bu maqsadlarga erishishda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatning subyektini sifatida O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonun asoslarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy siyosatni, shu jumladan valyuta-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi valyuta fondini shakllantirish va undan foydalanish;
- tashqi iqtisodiy iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni ijro etish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida respublikaning, uning yuridik shaxslari va fuqarolarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- respublika hududida chet ellik investorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalarda vakillik qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan boshqa vakolatlar kiradi.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko‘zlab o‘tkazish, tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar o‘z daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy etish;
- xorijiy sarmoyadorlarni, asosan bevosita kapital mablag‘lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;
- O‘zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan, xalq xo‘jaligining zamonaviy strukturasi vujudga keltirishda yordam beradigan sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o‘tkazish.

Tahlil va natijalar.

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat har bir milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh etish yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va bozorlari jiddiy omillar ta’siriga uchramoqda. Bular jumlasiga, takrorlanuvchi va ta’sir doirasi keng bo‘lgan moliyaviy va valyuta inqirozlarini; rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorning zaifligini; offshor moliyaviy markazlar sonining ko‘payishini; xususiy kapital hajmiga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishda xalqaro moliya institutlari imkoniyatlarining cheklanganligini; investitsiya institutlari, moliyaviy vositalar va operatsiyalar hajmining ko‘payishini kiritish mumkin. Mazkur omillar tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilish va uning muhim yo‘nalishlarini belgilash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Qayd etish joizki, 2020-yilda mamlakatimiz to'lov balansi ko'rsatkichlari shakllanishiga, asosan, COVID-19 pandemiyasi bog'liq o'zgarishlar ta'sirini o'tkazdi. Tashqi savdo aylanmasining pasayishi, global biznes faoliyatining sekinlashishi va moliyaviy xatarlarning ortishiga olib keldi. Pandemiya bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, xususan, iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona boji va soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozli tizim joriy qilindi.

Bu borada, koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarish sur'atlarini tiklash, aholi bandligini oshirish, daromadlarini ko'paytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020-yil 3 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5978-sonli hamda 2020-yil 18 mayda «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5996-sonli Farmonlari qabul qilindi. Mazkur farmonga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirish borasida bir qator yo'nalishlarda imtiyozli tartiblar belgilab berildi.

Shuningdek, mazkur davrda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport hajmi 15127,7 mln. AQSh dollarini tashkil etgan holda o'tgan yilga nisbatan 13,4 foizga kamaygan. Jami eksport tarkibida tovarlar ulushi 48,4 foizni, xizmatlar 13,2 foizni, oltin 38,4 foizni tashkil etgan hamda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan mos ravishda 19,6 va 41,7 foizga kamaygan, oltin eksporti esa aksincha 18,0 foizga ortgan.


Jami import hajmi 21171,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,8 foizga kamaygan, lekin shunday bo'lsada 2020 yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi tarkibida import hajmi eksport hajmiga nisbatan yuqori bo'lib mazkur holat tashqi savdo saldosinga manfiy, ya'ni -6043,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lishiga olib kelgan. Jami import hajmida yuqori ulush (94,3 foiz) tovarlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (mln. AQSh dollari)¹

Ko'rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	O'sish sur'ati, foizda,
Tashqi savdo aylanmasi	32 818,6	40 098,7	122,2%
Eksport	12 506,04	15 483,1	123,8%
Tovarlar		9 235,4	
xizmatlar		3 276,8	
oltin		2 970,9	
Import	20 312,2	24 615,6	121,2%
tovarlar		22 506,0	
xizmatlar		2 169,6	
Saldo	-7 805,8	-9 132,6	

Shu boisdan import tarkibida yuqori ulushni tashkil etuvchi mahsulotlarni milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha sanoatdagi tarkibiy islohotlarni davom ettirish va faollashtirish maqsadga muvofiq. 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 40 098,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 7 280,1 mln. AQSH dollariga yoki 22,2 % ga ko'paydi. TSA da eksport hajmi 15 483,1 mln. AQSH dollariga (23,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 24 615,6 mln. AQSH dollariga (21,2 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 9 132,6 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

2020-yil yakuni bo'yicha mamlakatimizga 147 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Etti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Chexiya Respublikasi) jami importning 71,9 foiz ulushini tashkil qildi, bu 15228,2 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.



1-rasm. O'zbekiston respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi (mln. AQSh dollari, ulushi, foizda)²

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgargan. Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2020 yilda tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,6 foizni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan ulushi 2,0 foizga kamaygan. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 2,0 foizga ko'paygan holda jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 67,4 foizni tashkil etgan.

Hozirgi kunda mamlakatimiz dunyoning 170 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirmoqda. Tashqi savdo aloqalarining yuqori salmog'i Xitoy (17,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (15,5 foiz), Qozog'iston (8,3 foiz), Koreya Respublikasi (5,9 foiz), Turkiya (5,8 foiz) kabi mamlakatlarga to'g'ri kelgan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda jahon bozorida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan quyidagi xavf-xatarlar mavjud:

- jahon iqtisodiyotidagi inqirozlar va beqaror rivojlanish;
- rivojlangan mamlakatlarning yangi texnologik ukkladga o'tishi bilan bog'liq raqobatning kuchayishi;
- jahonda kapital oqimining beqarorligi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining qisqarishi;
- O'zbekistondagi an'anaviy eksport tovarlariga bo'lgan talabning pasayib ketish ehtimoli;
- O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari hisoblangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va faollikning pasayishi.

Global iqtisodiyot sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning yagona yo'li bo'lib savdo urushlarini to'xtatish va ilg'or IT-texnologiyalar asosida tovarlar va xizmatlar almashishning yangi, yanada ishonchli va zamonaviy global tizimni yaratish hisoblanadi. Shu bilan birga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli holatga, uning salbiy ta'sirlariga bardosh bera oladigan moliya tizimini shakllantirish, mamlakatlar moliya tizimida inqirozli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan oldini olish hamda ularning ta'sir doirasini kamaytirish lozim. Shuningdek, xalqaro moliya tizimidagi harakatlar hamjihatligini ta'minlash, moliyaviy operatsiyalarni xalqaro darajada tartibga solishning ta'sirchanligini oshirish zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. 2000 yil 26 may, 77-II-son. // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
2. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2019 yil 25 dekabr, O'RQ-598-son. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 apreldagi «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5978-sonli Farmoni. // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 18.10.2021-y., 06/21/6324/0970-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son
4. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Iqtisod-moliya. T.: 2020 y.
5. Ataniyazov J.X. Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. T.: 2021 y.
6. Alfaro L. Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches. *World Bank Economic Review* (2016). P. 1–14.
7. Bernard, A., Jensen, J., Redding, S., Schott, P. Firms in international trade // *Journal of Economic Perspectives*. 2021, 3. P.105-130.
8. Edwards S. Financial Openness, Currency Crises, and output Losses in Strengthening Global Financial Markets, ed. by S. Edwards and M. Garcia. Chicago, 2016.
9. Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. – 9th ed. 2018. – 808 p.
10. Jaworek M., Kuzel M. (2015). Transnational Corporations in the World Economy: Formation, Development, and Present Position. *Copernican Journal of Finance & Accounting*, 4(1), P. 55-70.
11. <https://president.uz>
12. <http://www.worldbank.org>
13. <http://www.adb.org>
14. <https://www.ebrd.com>
15. <http://www.imf.org>
16. <https://stat.uz>